



TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA CHAKANA BANK XIZMATLARINING MOLIYAVIY JIHATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

IMPROVING THE FINANCIAL ASPECTS OF RETAIL BANKING SERVICES IN THE PROCESS OF TRANSFORMATION

¹Alimov Umid
O'ktambayevich

¹"Biznesni rivojlantirish banki" ATB
Chakana biznes departamenti direktori

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Mazkur maqolada tijorat banklarida kechayotgan transformatsiya jarayonlari sharoitida chakana bank xizmatlarining moliyaviy jihatlarini takomillashtirish masalalari ilmiy-amaliy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan sharoitda banklarning kreditlash, hisob-kitob, to'lovlar va mijozlar bilan o'zaro aloqalarni amalga oshirish mexanizmlarida tub o'zgarishlar kuzatilmoqda. Maqolada chakana segmentning moliyaviy barqarorligi, kredit portfeli sifatini oshirish, risklarni boshqarishning zamonaviy yondashuvlari hamda xizmatlarni diversifikatsiya qilishning ahamiyati asoslab beriladi. Shuningdek, raqamli platformalar, avtomatlashtirilgan skoring tizimlari, Big Data va kiberxavfsizlik yechimlarining qo'llanishi banklarning moliyaviy samaradorligini oshirishda qanday rol o'ynashi yoritiladi. Tadqiqot natijalari transformatsiya sharoitida banklar uchun moliyaviy boshqaruvning innovatsion usullarini taklif etib, chakana xizmatlar sifatini yaxshilash, operatsion xarajatlarni optimallashtirish hamda mijozlar ehtiyojiga mos raqamli mahsulotlarni yaratish bo'yicha amaliy xulosalar beradi.

Eng. - This article provides a scientific and practical analysis of issues related to improving the financial aspects of retail banking services amid ongoing transformation processes in commercial banks. In an environment where digital technologies are rapidly advancing, significant changes are observed in the mechanisms of lending, settlements, payments, and customer interaction within the banking sector. The article substantiates the importance of financial stability in the retail segment, enhancing the quality of the credit portfolio, adopting modern approaches to risk management, and diversifying banking services. It also examines the role of digital platforms, automated scoring systems, Big Data, and cybersecurity solutions in increasing the financial efficiency of banks. The findings of the study propose innovative methods of financial management for banks during the transformation period, offering practical recommendations for improving the quality of retail services, optimizing operational costs, and developing digital products tailored to customer needs.

Kalit so'zlar:
Keywords:

❖ chakana bank xizmatlari, transformatsiya jarayoni, raqamli bank mahsulotlari, moliyaviy barqarorlik, kredit portfeli, risklarni boshqarish, raqamli platformalar, avtomatlashtirilgan skoring tizimi, fintech, kiberxavfsizlik.

❖ retail banking services, transformation process, digital banking products, financial stability, credit portfolio, risk management, digital platforms, automated scoring system, fintech, cybersecurity.

Kirish.

So'nggi yillarda bank-moliya tizimida kechayotgan raqamli o'zgarishlar tijorat banklarining faoliyat modelini tubdan yangilashni talab qilmoqda. Xususan, chakana bank xizmatlari segmenti transformatsiyaning eng faol va strategik ahamiyatga ega yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarning tez sur'atlarda rivojlanishi kreditlash, to'lovlar, hisob-kitob amaliyotlari va mijozlar bilan o'zaro aloqalarni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ushbu jarayon banklardan nafaqat zamonaviy innovatsion yechimlarni joriy etishni, balki moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, risklarni boshqarishning samarali mexanizmlarini yaratish hamda chakana xizmatlar assortimentini diversifikatsiya qilishni talab etadi. Davlat rahbari Sh.Mirziyoyev «Bank sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi - tijorat banklarini mijoz uchun ishlash'ga o'rgatishdan iboratdir. Shuningdek, davlat banklarida zamonaviy bank amaliyoti, menejmenti va xizmatlarini joriy qilish uchun rahbarlik lavozimlariga xorijiy yetakchi moliya institutlarining malakali mutaxassislarni jalb etish boshlandi va bu jarayon izchil davom etadi. Aholida bank tizimiga nisbatan ishonchni shakllantirish va banklar faoliyatiga chetdan aralashishga chek qo'yish kerak» deya qayd etib o'tgan [1].

Chakana bank xizmatlarining moliyaviy jihatdan mustahkam bo'lishi bankning umumiy barqarorligida hal qiluvchi o'rin tutadi. Shu bois, kredit portfeli sifatini oshirish, mijozlar ehtiyojiga moslangan raqamli mahsulotlarni ishlab chiqish, operatsion jarayonlarni avtomatlashtirish va kiberxavfsizlik choralari kuchaytirish transformatsiyaning asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Raqamli platformalar, Big Data analitikasi, avtomatlashtirilgan skoring tizimlari va fintech innovatsiyalarining bank amaliyotlariga integratsiya qilinishi chakana bank xizmatlarining moliyaviy samaradorligini oshirishga, mijozlar uchun qulay va tezkor

xizmatlarni yaratishga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot banklarda transformatsiya jarayonining mazmun-mohiyatini o'rganish, chakana xizmatlarning moliyaviy jihatlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish va zamonaviy boshqaruv yondashuvlarini amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini yoritishga qaratilgan.

Mavzuga doir adabiyotlar sharhi.

Tijorat banklari tomonidan aholiga taklif etilayotgan chakana bank xizmatlari moliyaviy operatsiyalar yig'indisidan iborat bo'lib, ularning asosiy xususiyati keng ommaga yo'naltirilganligi va birlamchi iste'molga mo'ljallanganligi bilan korporativ bank xizmatlaridan farqlanadi. Bugungi kunda ko'plab iqtisodiy adabiyotlarda bank xizmatlari, mahsulotlari va operatsiyalari tushunchalari ko'p uchramoqda. Chakana bank xizmatlariga yuridik ravishda aniq ifoda etib ta'rif berish muammoli masala hisoblanadi. So'nggi yillarda tijorat banklarida chakana kreditlash jarayonlarining raqamli transformatsiyasi murakkab ko'p qirrali jarayon bo'lib, u kreditlash amaliyotlarini optimallashtirish va soddalashtirish uchun raqamli texnologiyalar hamda strategiyalarni birlashtirishni o'z ichiga olmoqda.

Bank xizmatlarining yo'naltirish maqsadi va texnologiyasi nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, bizning fikrimizcha, "Bank chakana xizmatlari - bu jismoniy shaxslarning muayyan bank mahsulotlari va operatsiyalariga doir shaxsiy yoki oilaviy ehtiyoj hamda talablarini qondirishga qaratilgan xizmatlar majmui sifatida tavsiflanadi". Ushbu tushunchalarning nazariy asoslari, mohiyati, turlari va roli mahalliy va xorijiy olimlarning asarlarida u yoki bu jihatdan o'rganilgan.

S.V. Galiskayaning qarashi ham yuqoridagi olimlar qarashlariga mos kelsada, faqat ulardan farqli o'laroq, u bank xizmatlari aktiv va passiv operatsiyalarni o'z ichiga oladi va bank xizmati obyekt bo'lib kapital

hisoblanadi, degan fikrni o'rtaga tashlagan [2]. Ushbu fikrga to'laqlonli qo'shilib bo'lmaydi deb hisoblaymiz, chunki banklar tomonidan mijozlarga ko'rsatiladigan ayrim xizmatlar aktiv ham, passiv ham operatsiyalar qatoriga kirmaydi. Sh.Z. Zakirov o'zining dissertatsion tadqiqotida «Chakana bank xizmatlari kelishilgan harakatlar majmui bo'lib, uning natijasida mijozning shaxsiy ehtiyojlari uchun pul mablag'laridan foydalaniladi» deydi [3]. Biz yuqorida aytib o'tganimizdek, bu ta'rifga to'laqlonli qo'shilmaymiz, chunki ayrim bank xizmatlarida pul mablag'lari harakati kuzatilmaydi. Shunga o'xshash ta'rifni yana bir rossiyalik olim o'z ilmiy ishida keltirib o'tgan. Ye.A. Vinokurova o'zining tadqiqot ishida chakana bank xizmatlari va chakana bank mahsulotlari tushunchalariga ta'rif bergan. Uning fikricha, «Chakana bank xizmatlari bu bir nechta bir-biriga bog'liq bo'lgan chakana bank operatsiyalari bo'lib, uning natijasida mijozning ehtiyojini qondirish uchun pul mablag'lari harakati yuzaga keladi. Chakana bank mahsulotlari jismoniy shaxslarga taqdim etiladigan tartibga solingan va standartlashtirilgan chakana bank xizmatlari to'plami hisoblanadi» [4].

Xususan, N.V. Keshenkova chakana bank xizmatlarini standartlashtirilgan, bank operatsiyasi orqali tashkil etiladigan, bank mijozlarini ommaviy tarzda maxsus bank tovarlari va mahsulotlari bilan ta'minlash jarayonini yuridik jihatdan rasmiylashtirish jarayoni deb tushuntiradi [5]. Ushbu ta'rifga ham bizda ayrim e'tirozlar bo'lib, nazarimizda bank xizmatlarining barchasida ham yuridik rasmiylashtirish jarayoni vujudga kelmaydi. Ayniqsa, bu holat masofaviy bank xizmatlarining barchasida ham amalga oshirilmaydi. A.S. Goncharuk esa o'zining tadqiqot ishida quyidagi mualliflik ta'rifini berib o'tadi: chakana bank xizmatlari – bu aholiga tijorat bilan bog'liq bo'lmagan shaxsiy, oilaviy ehtiyojlarini qondirish uchun standartlashtirilgan bank mahsulotlariga asoslangan xizmatdir [6].

Rossiyalik olimlardan A.M. Tavasieva, V.A.Perexojievlar esa, bank mahsulotiga mijozlarning bank xizmatlariga bo'lgan talabini qondirish yo'llarini ham kiritadilar [7]. Yuqoridagi iqtisodchilardan farqli o'laroq A.N.Ivanov bank mahsulotiga, alohida bank faoliyati bo'yicha mijoz talabini qondirish uchun o'zaro bog'liq bo'lgan bank xizmatlari to'plami va operatsiyalarini amalga oshirilishini kiritgan [8]. Bank xizmatlari tushunchasini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ushbu tushuncha ham turli adabiyotlarda turlicha talqin qilinadi. Biz o'zimizning ilmiy tadqiqot ishimizda ba'zi iqtisodchi olimlarning fikrlarini ko'rib chiqishni va o'z yondashuvimizni shakllantirishni oldimizga maqsad qilib qo'ydik. Masalan, iqtisodchi olim Ye.F.Jukov bank xizmatlari tushunchasiga faqat moliyaviy xizmatlarni kiritgan, u bank asosan operatsiya bajaradi deb hisoblaydi. Bank operatsiyalarini aktiv va passiv operatsiyalarga bo'lib, bankning moliyaviy xizmatlariga lizing, faktoring, forfeyting va trast operatsiyalarni kiritadi [9].

G.N. Beloglazova va A.M. Tavasievalar bank xizmati asosida operatsiya yotadi, ya'ni bank operatsiyasi natijasida bank xizmati yaratiladi va ushbu operatsiya bank mijozi talabini qondiradi, degan qarashni ilgari suradi [10].

So'nggi yillarda raqamli iqtisodiyotning joriy etilishi nafaqat ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini, balki moliyaviy tizimni ham tubdan o'zgartirmoqda. O'zbekiston iqtisodiyotida raqamli transformatsiya jarayoni yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Shuning uchun ham transformatsiya jarayonida tijorat banklari chakana xizmatlarini takomillashtirish masalalari mamlakat moliyaviy barqarorligi, bank tizimining raqobatbardoshligi, aholining moliyaviy inklyuziyasini kengaytirish hamda umumiy raqamli iqtisodiyotning rivojlanish sur'atlarini ta'minlash nuqtai nazaridan yuqori darajada ilmiy va amaliy ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, gruhlash, qiyoslash, retrospektiv va istiqbolli, empirik tahlil va boshqa uslublardan foydalanildi. Maqolada ilmiy abstraksiyalash usuli yordamida transformatsiya jarayonida tijorat banklari chakana xizmatlari moliyaviy jihatdan rivojlantirish yo'llari hamda tashkiliy huquqiy asoslarini takomillashtirishning ilmiy va amaliy ahamiyati keltirib o'tilgan. Shuningdek, qiyosiy taqqoslash usulida jahon amaliyotida va taraqqiy etgan mamlakatlarda tijorat banklari chakana xizmatlarini moliyaviy jihatdan rivojlantirish usullarining tashkiliy-huquqiy asoslarini mamlakatimizdagi mavjud asoslar bilan taqqoslab tegishli xulosalar shakllantirildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Transformatsiya jarayoni sharoitida chakana bank xizmatlarining moliyaviy jihatlarini takomillashtirish yaqin yillardagi

makromoliyaviy vaziyat, bank sektorining barqarorligi, kreditlash dinamikasi va aholining qarz yukiga doir real ko'rsatkichlar bilan chambarchas bog'liqdir. Bank sektorida kapital va likvidlikning yetarli darajada yuqori bo'lishi ham transformatsiya jarayonini qo'llab-quvvatlamoda. Kapital yetarlilik koeffitsienti 17,4 foizni I-darajali asosiy kapital yetarliligi esa 14,6 foizni tashkil etgani banklarning kengayib borayotgan chakana kreditlash faoliyatini barqaror davom ettirishiga imkon beradi. Bunga qo'shimcha ravishda Likvidlikni qoplash me'yori ko'rsatkichi 195 foiz, sof barqaror moliyalashtirish me'yori esa 117 foiz bo'lib, qisqa va uzoq muddatli likvidlik yetarliligi yuqori ekanini tasdiqlaydi. Yuqori likvid aktivlar ulushining 18 foizgacha oshishi banklarga tezkor kreditlash, to'lov xizmatlari, onlayn operatsiyalar kabi raqamli xizmatlarni kengaytirish imkonini beradi.

1-jadval

Makromoliyaviy omillar va ularning chakana bank xizmatlariga ta'siri*

Ko'rsatkich	2025-yil I-yarim yilligi holati	Asos	Chakana xizmatlarga ta'siri
Valyuta bozori barqarorligi	So'm yil boshidan 2,1 foiz mustahkamlandi	Valyuta kursi dinamikasi	Kredit stavkalari barqarorlashadi, elektron konversiya xizmatlariga talab oshadi
Xalqaro rezervlar	48,5 mlrd. dollar (yillik +34 foiz)	Markaziy bank rezervlar statistikasi	Banklar uchun resurslar arzonlashadi va iste'mol kreditlari taklifini kengaytiradi
Moliyaviy sharoitlar indeksi	Engillashgan (manfiy zona)	Moliyaviy sharoitlar indeksining dinamikasi	Online mobil-kreditlash, onlayn overdraftlar uchun qulay sharoit yaratadi
Real YaIM o'sishi	7,2 foiz	Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili	Aholi daromadlarining oshishi depozitlar va chakana kreditlar kengayadi

*<https://cbu.uz/uz/financial-stability/report/> 2025-yil I-yarim yilligi uchun moliyaviy barqarorlik sharhi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Chakana kreditlash segmentida bir qator muhim o'zgarishlar qayd etilgan. Jismoniy shaxslar kreditlari yillik 22 foizga oshgan bo'lsa, aholi depozitlarining 40 foizlik o'sishi kredit/depozit nisbatini 135 foizgacha pasaytirgan. Bu banklar uchun resurs bazasi yetarli ekanidan dalolat beradi va chakana kreditlashni xavfsiz kengaytirish imkoniyatini yaratadi. Biroq, aholining qarz yuki yuqoriligi, qarzga xizmat ko'rsatishning daromadga

nisbati ko'rsatkichining 36 foizdan 33 foizga pasaygan bo'lsa-da, hanuz yetarlicha yuqori ekanligi kreditlashda risklarning kuchayib borayotganini ko'rsatadi. Mikroqarzlarni portfeli sifati yomonlashgani, avtokreditlarda tartibga solish arbitrajining paydo bo'lgani va bir nechta kreditga ega mijozlar ulushining ortgani transformatsiya jarayonida risk-menejment tizimlarini yangilashni talab qiladi.

2-jadval

Chakana kreditlash bo'yicha umumiy jihatlar*

Yo'nalish	Amaldagi holat	Asos	Transformatsiya zarurati
Jismoniy shaxslar kreditlari	Yillik 22 foiz o'sish	Kredit bozoridagi tendensiyalar	AI asosli scoring, avtomatlashtirilgan tekshirish tizimlari
Depozitlar o'sishi	Yillik +40 foiz	Depozitlarning o'sish jadvali	Depozitlar uchun sodiqlik dasturi, investitsion depozitlar
Kredit/depozit nisbati	135 foiz (19 foizga pasaygan)	Kredit/depozit indikatorlari	Mikroqarz va tezkor qarzlar segmentini kengaytirish
Ipoteka kreditlari	Leverage yuqori → risk ortgan	UY-joy bozoridagi segment tahlili	Risklarni kamaytirish uchun garov baholashni raqamlashtirish

*<https://cbu.uz/uz/financial-stability/report/> 2025-yil I-yarim yilligi uchun moliyaviy barqarorlik sharhi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Yuqoridagi omillarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, 2025-yilda chakana bank xizmatlarining moliyaviy jihatlarini takomillashtirish uchun bank tizimi yetarli salohiyatga ega. Biroq risklarning oshishi, mijozlarning qarz yukining kattaligi, ayrim bozor segmentlarida nomutanosibliklarning paydo bo'lishi transformatsiyani tezlashtirish va chuqurlashtirish zarurligini taqozo etadi. Shu asosda raqamli texnologiyalarni joriy qilish, risk-menejmentni takomillashtirish, mahsulotlar diversifikatsiyasi va makroprudensial mexanizmlarni kuchaytirish chakana bank xizmatlarining barqaror rivoji

uchun asosiy strategik yo'nalishlar bo'lib qoladi.

Banklarda chakana kreditlash jarayonlarini raqamli transformatsiya qilish va uning faoliyatini o'rganish bo'yicha xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan hamda ilmiy qo'llanmalar yozilgan bo'lib turlicha ta'riflar berilgan. Ushbu sohada tadqiqot olib borgan olimlarning fikricha, tijorat banklarda chakana kreditlash jarayonlarini raqamli transformatsiyalash jarayonlari moliya va bank sohasidagi bir qancha ko'rsatkichlar bo'yicha milliy iqtisodiyotning YaIM o'sish sur'atlariga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

3-jadval

Transformatsiya jarayonida chakana bank xizmatlarining moliyaviy jihatlarini raqamlashtirishning afzalliklari*

Yo'nalish	Raqamlashtirishning afzalligi	Moliyaviy samarasi	Transformatsiyaga ta'siri
Operatsion xarajatlar	Filial sonini qisqartirish, avtomatlashtirish	Xodim, ijara, hujjatlashtirish xarajatlari keskin kamayadi	Bankning xarajat-daromad nisbatini (CIR) pasaytiradi
To'lov tizimlari	Mobil banking, QR, NFC to'lovlar	Naqd pulsiz operatsiyalar ulushi ortadi, tranzaksiya xarajatlari kamayadi	Tezkor to'lov ekotizimi shakllanadi
Kreditlash jarayoni	Onlayn kreditlash, eKYC, avtomatik scoring	Kredit berish tannarxi pasayadi, risklar minimallashtiriladi	Kredit portfeli sifati yaxshilanadi, tezlik oshadi
Raqamli identifikatsiya	Biomtrik tasdiqlash	Firibgarlik va yo'qotishlar kamayadi	Xavfsiz xizmat ko'rsatish tizimi yaratiladi
Mobil ilovalar	24/7 xizmat	Mijoz soni ortadi, xizmatlar aylanmasi ko'payadi	Bankning chakana bozordagi ulushi kengayadi
Raqamli hujjatlashtirish	E-imzo, elektron shartnoma	Qog'oz xarajatlari bekor bo'ladi, tezkorlik oshadi	Avtomatlashtirilgan operatsiyalar ulushi ortadi

*Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Zamonaviy bank tizimining rivojlanishi raqamli texnologiyalar jadal kengayib borayotgan sharoitda amalga oshmoqda. Raqamlashtirish jarayoni bank mahsulotlari va xizmatlarining tezkorligi, xavfsizligi, narxi va mavjudligi kabi barcha jihatlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, chakana bank xizmatlari mijozlar segmenti uchun raqamlashtirishning ahamiyati nihoyatda yuqori, chunki bu xizmatlar aynan aholining ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lib, ulardagi har qanday o'zgarish to'g'ridan-to'g'ri mijozning kundalik moliyaviy faoliyatiga ta'sir qiladi.

Chakana bank xizmatlarining raqamlashtirilishi mijozlar uchun ko'plab afzalliklarni yaratadi. Bu jarayon bank tizimining raqobatbardoshligini oshirish,

moliyaviy inklyuzivlikni kengaytirish va mijozlar ehtiyojlariga moslashtirilgan xizmatlar taqdim etishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Raqamli texnologiyalar qo'llanilgani sari banklar uchun xizmatlarni soddalashtirish, tezlashtirish va arzonlashtirish imkoniyati kengayadi, mijozlar esa zamonaviy va sifatli moliyaviy xizmatlar bilan ta'minlanadi.

Raqamlashtirishning mijozlar uchun afzalliklarini o'rganish dolzarb bo'lib, uning asosiy sababi banklarning raqobat muhiti kuchaygani, fintech va neobanklar paydo bo'layotgani, mijozlarning talab va kutishlari keskin o'zgarib borayotganidadir. Shu sababli, raqamli bank xizmatlari samaradorligini oshirish nafaqat moliyaviy tizimning barqarorligiga, balki mijozlar tajribasining optimallashtirishiga xizmat qiladi.

4-jadval

Raqamlashtirish jarayonida chakana bank xizmatlarining mijozlar uchun afzalliklari*

Yo'nalish	Afzallik	Mijoz uchun natija	Bank faoliyatiga ta'siri
Vaqrtni tejash	Xizmatlar 24/7	Tezkor kredit olish, to'lov o'tkazish imkoniyati	Kutilish va navbat muammosi bartaraf etiladi
Qulaylik	Mobil ilovalar orqali barcha xizmatlar	Geografik cheklov yo'q	Filialga bog'liqlik kamayadi
Xarajat	Komissiyalar pasayishi	Arzon tranzaksiyalar	Katta mijoz oqimini jalb etadi
Shaxsiylashtirish	AI asosida tavsiyalar	Moslashtirilgan mahsulotlar	Marketing xarajatlari kamayadi

*Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Raqamlashtirish orqali mijozlar bank xizmatlaridan 24/7 rejimda foydalanish imkoniga ega bo'ladi. Bu holat avvalgi an'anaviy modelda mavjud bo'lmagan yengilliklarni yaratadi. Mobil ilovalar, internet-banking va chat-botlar yordamida mijozlar nafaqat to'lovlarni amalga oshirishi, balki kartalarni boshqarishi, kredit arizasini yuborishi, limit o'rnatishi va shunga o'xshash operatsiyalarni istalgan joydan bajarishi mumkin. Bu jarayon bank xizmatlarini geografik chegaralardan chiqarib, ularni aholining keng qatlamiga taqdim etish imkonini beradi.

Raqamli xizmatlarning eng katta afzalliklaridan biri - operatsiyalarning yuqori

tezligi hisoblanadi. An'anaviy bank amaliyotlarida mijozdan hujjatlar tayyorlash, masofaga borib kelish, navbatda turish kabi vaqt sarflovchi talablar mavjud edi. Raqamlashtirish esa bu jarayonlarning deyarli barchasini avtomatlashtiradi.

Misol uchun:

- ❖ kredit olish uchun ariza 2-3 daqiqada yuboriladi;
- ❖ mobil to'lovlar bir necha soniyada amalga oshiriladi;
- ❖ elektron shartnomalar orqali hujjatlashtirish jarayoni tezlashadi.

Bu esa mijoz vaqtini sezilarli darajada tejaydi va ularning bank xizmatlaridan foydalanish tajribasini yengillashtiradi.

Xulosa va takliflar.

Transformatsiya jarayonida chakana bank xizmatlarining moliyaviy jihatlarini takomillashtirish va ularni raqamlashtirish bo'yicha olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston bank tizimi 2025-yilning birinchi yarim yilligi holatiga ko'ra barqaror, raqobatbardosh va modernizatsiyaga tayyor tizim sifatida shakllanmoqda.

Chakana bank xizmatlarini raqamlashtirish jarayoni mijozlar uchun sezilarli afzalliklarni keltirmoqda. Xizmatlarning 24/7 rejimda mavjud bo'lishi, operatsiyalar tezligi, tranzaksiya xarajatlarining kamayishi, biometrik autentifikatsiya asosidagi xavfsizlik, shaxsiylashtirilgan moliyaviy xizmatlar, mobil boshqaruv imkoniyatlari mijozlar tajribasini tubdan o'zgartirmoqda. Bu jarayon nafaqat mijozlarning bankka murojaat qilish ehtiyojini kamaytiradi, balki moliyaviy savodxonlikni oshirishga ham xizmat qiladi.

Raqamlashtirish banklar uchun ham strategik afzalliklar yaratadi: operatsion xarajatlarning kamayishi, filial tarmog'ining optimallashtirilishi, tranzaksiyalarning arzonlashuvi va tezlashuvi, ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish imkoniyati, fintech hamkorliklari va innovatsion ekotizimning shakllanishi bank tizimining umumiy samaradorligini oshiradi. Ayniqsa, masofaviy xizmatlar ulushining ortishi bilan banklarning xarajat-daromad koeffitsienti yaxshilanadi, kredit portfelining sifati kuchayadi va xizmatlar geografiyasi kengayadi.

Makroiqtisodiy nuqtayi nazardan, raqamli bank xizmatlari moliyaviy inklyuzivlikni oshiradi, naqd pulsiz iqtisodiyotning kengayishiga, yashirin iqtisodiyotning qisqarishiga olib keladi va natijada iqtisodiy faollikni rag'batlantiradi. Raqamlashtirishning banklar, mijozlar va davlat iqtisodiyoti uchun ko'p qirrali foydasi iqtisodiy transformatsiyaning muhim drayverlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning "Tijorat banklari eng zamonaviy xizmatlarni ko'rsatib, har bir mijozning ko'ngliga yo'l topa oladigan bo'lishi kerak" mavzusidagi nutqi. <https://kun.uz/32726500>
2. С.В.Галицкая «Деньги, кредит, банки». Полный курс. Москва изд. «Эксмо» 2008г 253 стр.
3. Закиров Ш.З. Развитие рынка банковских розничных услуг: дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Сам. гос. эконом. ун-т - Самара, 2008. - 185 с.
4. Винокурова Е.А. Методическое обеспечение анализа кризисных состояний розничного бизнеса коммерческого банка: автореферат дис. канд. экон. наук: 08.00.12/ Йошкар-Ола - 2011. - 20 с.
5. Кешенкова Н.В. Развитие розничных банковских услуг в условиях формирования инновационной экономики: автореферат дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Моек. гос. ун-т экономики, статистики и информатики - Москва, 2013. - 27 с.
6. Гончарук А.С. Институциональные аспекты развития сегмента розничных банковских услуг: дис. канд. экон. наук: 08.00.10 / Сев.-Осет. гос. ун-т им. К.Л. Хетагурова - Шахты, 2012. - 183 с.
7. Тавасиева А.М. «Дополнительные операции для клиентов» Москва «Ф и С» 2005 г. 13 стр.
8. А.Н.Иванов «Банковские услуги: зарубежный и российский опыт» Москва «Ф и С» 2002 г. 176 стр.
9. Е.Ф. Жуков «Банковское дело» М.: ЮНИТА-ДАНА 2007 г. 250 стр.
10. «Банковское дело» 2008 г. Питер Учебник для вузов 2-е издание Г.Н.Белоглазовой, Л.П.Крошвецкой 27 стр., А.М. Тавасиева «Дополнительные операции для клиентов» Москва 2005 г. «Ф и С» 13 стр.